

Elektr ta'minotidagi uzilishlarga barham berildi

Xalqning og'irini engil qilish, ularning dardu - tashvishlariga sherik bo'lish har bir deputatning hayotiy shiorlaridan biriga aylanishi lozim.

To'rtko'l tumani "Paxtachi" ovul fuqarolar yig'ini hududida yashovchi aholini ko'p vaqtlardan buyon qiynab kelayotgan elektr ta'minoti bo'yicha muammosi

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi deputati O'.Allabergenova tomonidan puxta o'rganib chiqildi va ijobiy hal bo'ldi. Ya'ni, tegishli tashkilotlar tomonidan hududga yangi elektr uskunasi (transformator) o'rnatib berildi.

Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Shuningdek, "Kaltaminor", "Otayurt" va "Tozabog'yop" ovul fuqarolar yig'ini hududlaridagi fuqarolar bilan o'tkazilgan muloqotlar jarayonida aniqlangan muammolar deputat tomonidan o'rganib chiqildi va soha mutaxassislari ishtirokida hal etish yuzasidan ishlar olib borilmoqda.

To'rtko'l tumani hokimligi Axborot xizmati.